



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2026, Issue 6.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MOERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY O'YINLARNING AHAMIYATI

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqa'la fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
Zeripbayeva Gulsara Jamaladdin qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirishda milliy o'yinlar o'z o'rniga ega. Milliy o'yinlar o'quvchilarning milliyligini, o'zligini anglashga, jismoniy madaniyatini oshirishga hamda og'zaki nutqini shakllantirishga xizmat qiladigan eng muhim vositadir. O'quvchilarni maktab davridan boshlab milliy urf-odat, an'analarimizga hurmat bilan qarashga o'rgatish eng asosiy jarayonlaridan biridir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib, o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir." [1.4-9] Milliy o'yinlar insonni aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan kamolga yetkazadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq o'yin mashg'ulotlariga qiziqishini inobatga olgan holda, o'yinlardan ham unumli foydalanish o'qituvchining o'z metodikasini to'g'ri o'rinda qo'llay olishi orqali namoyon bo'ladi. O'yinlardan qanday unumli foydalanish mumkin? -degan savol tug'ilishi tabiiy hol albatta, yechim sifatida o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyalarini o'stirishga xizmat qiladigan milliy o'yinlardan foydalanishdir. A.A.Leontevning fikriga ko'ra "Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir". Milliy o'yinlarni tashkil etish jarayonida uning matnini yod olish, uni talaffuz qilish nutqiy ravonlikka erishishda xizmat qiladi.

Xalq o'yinlarining manbalarda keltirilishi, uning manaviy merosi tirikligidan dalolat beradi. N.Halmatovanning kitobida ta'kidlanishicha "O'zbek xalq o'yinlari tarixida birinchi marta milliy o'yin namunalari bayon etilishi, ularning ta'rifi - tasviri qomusiy allomalardan biri Mahmud Qoshg'ariy qalamiga mansubdir. Devon-u lug'atit turk", ya'ni "Turkiy so'zlar devoni"ni tuzib chiqdi. Mahmud Qoshg'ariyning ushbu devonida 150 ga yaqin xalq o'yinlari tilga olinib, shulardan 20 taga yaqin o'yin turiga batafsil ta'rif berilgan" [3.24] Bundan kelib chiqadiki, milliy o'yinlar ma'rifatparvarlarning ham diqqat markazida bo'lib, ularni xalqqa yetkazish maqsadida o'z asarlarida alohida to'xtalib o'tganlar. Maktab darsliklarida milliy o'yinlarimizga alohida urg'u berilmoqda. "Hozirgi kunda o'rta umumiy ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarida — "Echki va yetti bola", — "Arqonni tortib olish", — "Teshiksiz quyon", — "Tez va aniq" kabi milliy ochiq o'yinlar tez-tez qo'llanilmoqda." [4.8-b] O'quvchilarni og'zaki nutqini shakllantirishga xizmat qiladigan milliy o'yinlarimizdan biri "Oq terakmi, ko'k terak" o'yini bo'lib, o'yinda o'quvchilar teng ikkita guruhga bo'linadilar va qo'llarini zanjir hosil qilib turishadi va o'yin shu tariqa boshlanadi. "Oq terakmi, ko'k terak bizdan sizga kim kerak? deb boshlanadi. Guruh a'zolari istagan o'quvchini tanlashadi va ismini aytib

chaqirishadi. Murojaat etilgan o'quvchi raqib tomon hosil qilgan zanjirini uzib biror bir o'quvchini o'z jamoasiga qo'shishga muvaffaq bo'ladi, agar zanjirni uza olmasa o'zi shu guruh a'zosiga aylanadi. O'yin guruhda o'quvchi qolmaguncha davom etadi. Bu o'yin orqali o'quvchilar baland ovozda o'yin matnini talaffuz qilib, nutqini o'stirishi, boyitishi hamda chaqqonlik, epchillik kabi fazilatlarini shakllantirishda yordam beradi.



"Áwelemen-dúwelemen". Bu o'yin kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'lib, unda ikki yoki undan ortiq bolalar doira shaklida, oyoqlarini bir-biriga tekkizgan holda oldga cho'zib, tizilib o'tirishadi. Ulardan biri oyoqlarini izma-iz:

Áwelemen-dúwelemen
Salqan iyttiń sanı menen
Áwez molla qayda ketti
Duzǵa ketti
Qashan keler
Jaz keler
Jaz kelmese
Gúz keler
Pállámpish

Sen tur, sen shıq! deya sanaydi.

Eng so'ngida "Pállámpish, Sen tur, sen shıq!" buyrug'i aytilganda barmoqqa to'g'ri kelgan oyoqlar chiqib ketadi. Shu tariqa eng so'ngida kimning oyog'i o'z o'rnida qolsa shu bola g'olib hisoblanadi" [2.16]. Qoraqalpoq milliy o'yinlaridan sanalgan "Áwelemen-dúwelemen" o'yini orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqi kompensatsiyalari hamda o'quvchilarni tez fikrlab vaziyatdan chaqqonlik bilan tez chiqib ketish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.



Bahribayt- bu o‘yin o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda yordam beradigan eng samarali bo‘lgan milliy o‘yinlardan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘yin shartiga ko‘ra o‘quvchilar oxirgi harfidan boshlanuvchi she‘r aytishlari kerak bo‘ladi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar she‘rni baland tovushda talaffuz qilib, nutqini ravon, nuqsonlarsiz bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini og‘zaki nutqini rivojlantirishda o‘zbek xalq milliy o‘yinlarining o‘rni katta, ular orqali o‘quvchilar milliyligimizga doimo hurmatda bo‘lish kerak ekanligi, vatanga bo‘lgan mehr muhabbat, sadoqatini namoyon eta oladigan, xalqqa manfaati tegadigan buyuk inson bo‘lib yetishishlarida xizmat qiladi. Milliy o‘yinlar orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda o‘qituvchi ko‘proq o‘quvchilar bilan shug‘ullanishi, o‘yin matnlarini yod olishga yordam berishi o‘quvchilar bilan ko‘proq shug‘ullanishi zarur. Shundagina ko‘zlangan maqsadga erishish uchun zamin yaratiladi. Zero, xalqimiz mustahkam va barqaror taraqqiyot yo‘lidan dadil va bardam harakat qilar ekan bunda yoshlarning o‘rni juda kattadir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Karimov I.A Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T: O‘zbekiston 1997. 4-9-bet
2. K.Esemuratov, P.Serimbetov. Qaraqalpaq milliy hareketli oyinlarni u‘yreniw. Nókis, Qaraqalpaqstan – 2005. 16-bet.
3. Xalmatova N. O‘zbek xalq o‘yinlarining qisqacha mazmuni [Matn]: uslubiy tavsiyamon / N. Xalmatova.-Toshkent: Umid Design", 2021.-24 b.
4. Mamadova Feruzaxon. Milliy va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (O‘quv qo‘llanma). O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 04-martdagi 55-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berilgan. - 8b